

ISTANBUL FOJIASI" ASARI: SHAXS VA JAMIYAT O'RTASIDAGI NIZOLAR

Ahmadjonova Zuhra Farhod qizi
O'zbekiston Milliy universiteti xorijiy
filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi
zuhraahmadjonova18@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin Vohidovning "Istanbul fojiasi" she'riy dramasi Ikkinchi Jahon urushida asirga tushib, qirq yil davomida sargardon yashagan o'zbek askari Iskandar taqdiri orqali shaxs va jamiyat o'rtasidagi fojaviy ziddiyat tahlil etiladi. Asardagi ijtimoiy-siyosiy muhit, tizimning insonga yetkazgan ma'naviy jarohati va Erkin Vohidovning dramaturgik mahorati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: "Istanbul fojiasi", shaxs, jamiyat, tragik ziddiyat, ijtimoiy adolatsizlik, Vatan sog'inchi.

KIRISH

Adabiyot tarixida shunday asarlar borki, ular o'z zamonining mahsuli bo'la turib, zamondan ustun chiqadi. Bunday asarlar bitta davrning muammosini emas, balki inson hayotining o'zgarmas dardlarini - erkinlik va majburiyat, shaxs va jamiyat, vatan va g'urbat o'rtasidagi abadiy to'qnashuvni badiiy tarzda aks ettiradi. Erkin Vohidovning "Istanbul fojiasi" she'riy dramasi ana shunday asarlar qatoriga kiradi. Bu asar sovet adabiyotining so'nggi davrida yozilgan edi - rasmiy mafkura hali to'liq yo'qolmagan, lekin adabiyot asta-sekin "taqiqlangan haqiqatlar"ga qadam bosa boshlagan bir zamon. E. Vohidov ana shu nozik tarixiy lahzada juda dadil bir qadam tashladi: urushda asirga tushgan, sovet tizimi tomonidan "xoin" tamg'asi bosilgan va shu tamg'a ostida butun umrini g'urbatda o'tkazgan jangchining taqdirini sahna tiliga ko'chirdi.

Ijodkor bu asarni yozishga nima undagani haqida shunday deydi: "Men chet ellarda safarda bo'lganimda turli sabablarga ko'ra xorijda qolib ketgan vatandoshlarni ko'rganman. Ularning ko'zlari tubiga cho'kkan dard yuragimda iz qoldirgan. Bu ko'zlar ba'zan tunlari xayolimda g'avdalanadi, azob beradi. "Aynan mana shu umidsizlik va sog'inch to'la ko'zlar "Istanbul fojiasi"ning tug'ilishiga sabab bo'lgan deb ayta olamiz. Asarni o'qish davomida muallif ta'kidlaganidek, Iskandar ham o'sha qurbonlar qatoriga kiradi, lekin u eng baxtsiz qurbon - tirik qurbon. Bu bir jumla bo'lsa-da, unda butun asarning og'irligi mujassamlashgan. Zero, jamiyat o'lgan qurbonni eslaydi, nomini yodda saqlaydi. U kabi tirik qurbonning esa ruhi bor-u, jismi yo'q, na ortga qayta oladi, na davom etadi.

ASARNING MAZMUNI VA ASOSIY G'OYASI

Urush ko'p narsani tortib oladi - uyni, yaqinlarni, kelajakni. Lekin "Istanbul fojiasi"da ko'tarilgan savol boshqacharoq: urush insondan o'z jamiyatida yashash huquqini ham tortib olishi mumkinmi? Iskandar bu savolning tirik javobi deb aytsak xato bo'lmaydi. U jang maydonida yiqilmagan, lekin jamiyat uni allaqachon o'lik deb belgiladi, yashagan ko'chasida "qahramon" sifatida haykalga aylantirildi va sevgan insoni o'z akasiga turmushga chiqdi. Jamiyat uni o'lgan deb biladi, o'lgan deb ulug'laydi. Tirik holda esa unga joy yo'q. Asirga tushgan askar o'sha davr uchun xoin edi, va bu bitta so'z uning butun umrini hal qilib qo'ygan. Iskandar yolg'iz emas edi bu yo'lda. O'sha urushdan asirlikdan omon chiqqan minglab o'zbek, rus, qozoq, ukrain askarlari ham xuddi shu devorga kelib urilgan, qaytishga qo'rqib, qolishga majbur bo'lgan odamlar. Ularning ko'pchiligi tarix sahifalarida ham, xotira kitoblarida ham yo'q. Erkin Vohidov bitta Iskandarni ko'rsatib, aslida ana shu ko'rinmas odamlarning barchasini ko'rsatgan - unutilganlarning, tilga olinmaganlarning, "yo'q" deb hisoblangan tiriklarning. Bu orqali shoir adabiyotning eng ulug' vazifalaridan biri: tarix unutilganlarni eslatish, jimlik ichiga ko'milib ketganlarning ovozini eshittirishni mahorat bilan o'quvchiga yetkazib bera olgan deb ayta olamiz.

Iskandar o'zini "qirq yil ilgari o'lganman" deb ta'riflaydi. Bu so'zlarni o'qigan inson beixtiyor achinish hissini tuyadi. Chunki buni aytgan odam tirik, lekin uning hayoti allaqachon olinib bo'lgan. Jamiyat uning nomini o'chirgan, uni jisman yo'q deb belgilagan. Iskandarning qahramonlarcha kurashgani, uni shon-shuhratini tirikligidan ustun ko'radilar. Qog'ozda o'lgan odam endi qayerda yashasa ham, nima qilsa ham ahamiyatsiz. Natijada, odam shunday holatda kim bo'ladi? Hech kim. Iskandar aynan shu "hech kimlik"da qirq yil yashagan. Lekin Erkin Vohidov uni mag'lub qahramon sifatida tasvirlamaydi. Iskandar Vatani hech kimga aytmagan lekin unutmagan ham. Bir hovuch mayizni og'ziga solib, ko'z yoshlarini zo'rg'a tutib turgan bu chol qirq yil davomida o'zida nimanidir asrab kelgan. Kimdir uni o'lgan deb bilgan, qabr toshi qo'ygan, ammo har qanday qiyinchilik undan o'zligini tortib ololmagan.

Asarda akasi Jalol sumkasidan bir hovuch mayiz chiqarib Iskandarga uzatadi. Iskandar uni og'ziga solib uzoq tamshanadi va shunday deydi: "Shukr, yurtim nafasini tuygandek bo'ldim. Bu bitta jumla butun asarning his-tuyg'u cho'qqisi. Unda qirq yillik sog'inch bor, ona tuprog'ining hidi bor, hech qachon qaytib kela olmaslik og'rig'i bor. Mayiz shunchaki meva emas - u Vatanning o'zi. Iskandar uchun bu bir lahzalik qaytishdek edi, qirq yildan keyin birinchi marta. Erkin Vohidov shu kichik detalda ulkan hissiyotni yashirgan. Bu adabiyotning qudrati: eng katta dardni eng oddiy narsada ko'rsata olish. Asarda shunday detallar ko'p va aynan shu detallar orqali asar faqat bitta Iskandarning emas, o'sha davrning barcha g'urbat ko'rgan odamlarining ovozigacha aylanadi.

"Istanbul fojiasi"ni o'qib, inson o'ziga savol berishi tabiiy: bu faqat sovet davri muammosi emasmi? Afsuski, yo'q. Bugun dunyoning turli burchaklarida o'z

yurtlaridan uzoqda, g'urbatda yashayotgan millionlab odamlar bor. Ba'zilari siyosiy sabablarga ko'ra, ba'zilari urush va zo'rvatlik tufayli. Ular ham Iskandar kabi bir hovuch tuproq sog'inchi bilan yashaydilar, ular ham ikki o't orasida qolishadi - na u yurtda Vatan qurishadi, na o'z yurtiga qayta oladi. Suriyalik qochqin ham, Afg'onistonlik muhojir ham, Ukrainalik urush qurboni ham - ularning har birida Iskandarning bir zarrachasi bor. Jamiyatning o'z normalariga mos kelmaganlarni chetga surish odati ham o'zgarmagan. Shaki o'zgargan, lekin mohiyat o'sha-o'sha. Erkin Vohidov buni 1985-yilda yozgan edi va u yozgan haqiqat bugun ham dolzarbligicha turibdi.

XULOSA

"Istanbul fojiasi" - bir insonning taqdiri orqali emas, balki o'sha davr ko'rgan barcha sindirilgan hayotlar, bajarilmagan vasiyatlar, kutib-kutib vafot etgan onalar, qaytib kela olmagan farzandlar nomi bilan yozilgan asar. Yozuvchi bu dramada hech kimni ayblamaydi, mahkum etmaydi, shunchaki ko'rsatadi. Va ko'rsatishning o'zi mingta ayblovdan kuchliroq chiqadi. Asarni o'qib bo'lgach, inson uzoq vaqt jim qoladi. Chunki Iskandarning dardi faqat sahna personajining dardi emas - u o'sha davrdagi haqiqiy odamlarning, mushtipar onalarning, aka-ukalarning dardi. Bu dard bugun ham sovimagani. Erkin Vohidovning ushbu asari biz uchun shunday ko'zgu tutadiki, unda har bir o'quvchi o'zini ham ko'radi: men o'sha tizimda bo'lganimda qanday bo'lardim? Men Iskandarni tanir edimmi? Unga eshik ocharmidim? Bu savollarga javob berish adabiyotning emas, har birimizning vijdonimizning ishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.Vohidov. "Saylanma" 3-jild "Umrin daryosi" 163-215 sahifa,2001 "Sharq" nashriyot-matbaa uyi.
2. Xurshid Davron kutubxonasi
3. E. Vohidov "Tanlangan asarlar" 2019. "Sharq" nashriyoti
4. E. Vohidov. Shoiru she'ru shuur: Adabiy esselar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 2005